YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich
Guliston davlat universiteti universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida ma’naviy sohada keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning amaliy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, ushbu sohada erishilayotgan natija va yutuqlar haqida batafsil yoritilgan. Shu jumladan, mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ma’naviy-madaniy islohotlarning ahamiyati haqida fikr-mulohaza, tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tashabbus, ma’naviyat, qadriyat, ilm-fan, texnologiya, taraqqiyot, strategiya, madaniy diplomatiya, milliy san’at, kinematografiya.

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda ilm-fan, texnika-texnologiya, madaniyat, ta’lim, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur’atlari tobora jadallashmoqda. Shuning bilan birga axborotlar asri talablariga muvofiq o‘zgarayotgan turmush tarzimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga ko‘plab yangidan-yangi vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bu muammolarga qarshi turish uchun bizga samarali yechim va chora-tadbirlar suv va havodek zarur bo‘lib bormoqda. Har qanday xalqning, jamiyatning a’zolari ongida ma’naviy-madaniy saviya va salohiyatni yuksaltirish, ularning dunyoqarashini va tafakkurini o‘stirish bugungi kunda mamlakat rivojida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Jamiyatimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, ikurslarni uzviy ravishda inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim”[4].

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng miqyosdagi islohotlar mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning orzu-maqsadlarni, xohish-istaklarini o‘zida ifoda etib, butun dunyoda yuksak e’tirof etilmoqda. Shundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish har bir fuqaroning zimmasiga yuklangan burchi va mas’uliyatiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir”.[5] Darhaqiqat, ma’naviyatli, ma’rifatga oshno inson har tomonlama yetuk, zukko va ilmli inson bo‘la oladi. Sababi, qalbida ma’naviyat nuri bo‘lgan inson harakatdan to‘xtamaydi, barcha ilmlarni o‘rganishga, o‘zining xalqi, yurti uchun foydali ishlar qilishga urinadi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar - bu keng ommani ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh

vaqtlarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushunchadir. Shu maqsadda bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan har bir ma’naviy-madaniy islohotlarimiz quyidagi masalalarni o‘z oldiga dolzarb vazifa sifatida qo‘ymoqda:

birinchidan, mamlakatimizda ma’naviy-madaniy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta’minlash, xalqimizning milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘zida mujassam etgan namunali o‘quv-dasturlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish;

ikkinchidan, fuqarolarning ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, xalq ijodiyoti va badiiy san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, turli havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli va samarali ravishda boyitib borish;

uchinchidan, yoshlarni amaliy to‘garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o‘rganish va “nutq madaniyati” hamda “notiqlik” bo‘yicha kurslarni uzviy ravishda tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo‘nalishlari, havaskorlik san’ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ‘ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

to‘rtinchidan, adabiyot hamda san’at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o‘tkazish; beshinchidan, ma’naviy tadbirlar, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san’atining tuman (shahar) miqyosidagi festival va anjumanlarini o‘tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, rag‘batlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash; oltinchidan, bayram, tomosha va xalq sayillarini keng ko‘lamda tashkillashtirish lozim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar har bir fuqaroda yuksak ma’naviyat va axloqiy fazilatlarning shakllanishida asosiy ko‘mak beruvchi vositalardan biri sanaladi. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi” – degan ta’kidlarini yodga olish kifoya. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar keng ma’noda o‘quv muassasalari, ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat muassasalri va turli istirohat bog‘larida amalga oshiriluvchi faoliyatlarni qamrab oladi. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni tizimli va izchil amalga oshirilishini ta’minlash borasida ko‘plab qonunchilik hujjatlari, strategiyalar va yo‘l xaritalari qabul qilinmoqda.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarorini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu Qarorda “Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; –oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash; –targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiyma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; –el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish”[6] lozimligi belgilab qo‘yildi. Endigi vazifa ushbu yo‘nalishlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga joriy etish uchun yetarli shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Binobarin, ma’naviyat va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar jamiyat hayotida quyidagilarni amalga oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi: –yurt ravnaqi va xalq farovonligi uchun ko‘plab tashabbuskorlik loyihalarini kuchaytirish, yosh avlodda intellektual salohiyatni shakllantirish uchun mustahkam va

samarali ijodiy va ma’rifiy muhitni yaratish, har bir shaxsda tevarak-atrofda ro‘y berayotgan voqea-jarayonlarga nisbatan daxldorlik hissini uyg‘otish, befarqlik, loqaydlik kabi salbiy illatlarga barham berish; – har bir fuqaroning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan muqaddas burchlarini anglab yetish darajasini oshirish, mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish va mustaqil fikr-mulohazaga ega yoshlar sifatida tarbiyalash; –Vatanga va o‘z millatiga cheksiz muhabbat va sadoqat hissini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, u insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni voyaga yetkazadigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan, ta’lim-tarbiya beradigan, safarga chiqsa mudom sog‘inadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish; – kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi umumbashariy sifatlarni rivojlantirish, ularga millatchilik va shovinizm hamjihatlikka raxna soluvchi salbiy illatlar ekanligini tushuntirish; – jamiyatimiz a’zolarining ma’naviy olamini, dunyoqarashini kengaytirish, har sohada ijtimoiy faolligini oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish; – siyosiy-huquqiy bilim saviyasini oshirish, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga baho berish ko‘nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g‘oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishiga ko‘maklashish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy va ma’rifiy islohotlar zamirida xalqimizni ma’naviyatli qilib tarbiralash, ularda insonparvarlik, mehroqibat va ezgulik axloqiy fazilatlarni shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biri sanaladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilning 22- dekabrda Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida ma’naviyatimizni yanada yuksaltirish borasida quyidagi ishlarga e’tibor qaratilishi ta’kidlandi[2]:

Birinchidan, yoshlar tarbiyasida mahalla faollari, nuroniylarning e’tiborini kuchaytirish;

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’uliyatini keskin oshirish;

Uchinchidan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atining o‘rnini oshirish;

To‘rtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish;

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish, ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an’analarni ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytirish;

Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘ringa ega bo‘lgan musiqa va raqs san’atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish;

Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish;

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish. Yuqorida keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda ma’naviyat targ‘ibotchilarining ham o‘rni katta.

Bugunga kelib ma’naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni tartibga solish ehtiyojini qondirish muhim va dolzarb sanaladi. Ana shu ehtiyojlarni hisobga olgan holda yurtimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Milliyma’naviyatimizning yuksalishida ma’lum bir guruh yoki jamoaning harakati kutilgan natijaga olib kelmaydi. Bu jarayonda butun millat, jamiyat birgalikda harakat qilsa biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga, albatta, erisha olamiz. Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifa va maqsadlarni amalga oshirish lozim:

– ta’lim muassasalari va mahalla a’zolari o‘rtasida faollikka targ‘ib qiluvchi turli ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazib turish;

– oila, mahalla va maktabning birlashib harakat qilishlari uchun turli tashabbus va dasturlar amalga oshirish;

– madaniy ko‘ngilochar tadbirlarni targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy ruhdagi amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar o‘tkazish joiz sanaladi.

Ayni damda yurtimizda ma’naviyat sohasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishidan biri hisoblanadi. Shu sababli qabul qilinayotgan strategik dasturlar, vazifalarda ma’naviyat ham alohida o‘rin egallagan. Masalan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish” bo‘yicha islohotlar keltirilgan[3]. Unda quyidagi vazifalar belgilangan:

– Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash; – O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish;

– Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish;

– O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish;

– Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish;

– Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish;

– Milliy kinematografiyani rivojlantirish.

Ushbu strategiyadagi vazifalar ham ma’naviyatimizning yuqori pog‘onaga ko‘tarilishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning ma’naviy sohasidagi islohotlar haqida quyidagi fikrmulohazalar yuqori ahamiyat kasb etadi:

1. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Darhaqiqat, insoniyat ma’naviyati rivojlanishi madaniyat va san’atsiz kechmaydi. O‘zbek san’atining taraqqiyoti uchun, xususan, duradgorlik, o‘ymakorlik, kulolchilik sohasida shoh asarlar yaratilishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Milliy musiqa va raqsning rivojlanishi yurtimizni dunyoga tanitishda bevosita o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Ushbu sohalardagi mavjud islohotlar, o‘zbek madaniyati va san’atini mangulikka eltib dunyoga tanitishda bevosita yordam beradi.

2. Yurtimizda bebaho milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boyliklarimiz, ajdodlarimiz merosini bugungi kun talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, biz uchun muqaddas islom dinining chinakam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr-shafqat, hamjihatlik dini ekanini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish lozim.

3. Ma’naviy sohani rivojlantirishda milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni mafkuraviy xarita shaklida ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi barcha qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish kerak.

4. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul va uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

XULOSA. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, yot va begona g‘oyalar, xususan, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilishva bu jarayonga yoshlarni keng jalb qilish, shu orqali ularda mas’uliyat va dahldorlik hissini uyg‘otish lozim. Bu esa amalga oshiriladigan tadbirlarning sifati va samaradorligini yanada oshiradi. Bunda har bir kishining xususiyatlari, muayyan voqea-hodisaga nisbatan o‘z shaxsiy fikriga ega ekanligi qay darajada shakllanganini alohida hisobga olish kerak. Qolaversa, bunday tadbirlarning samaradorligi ularning milliy, axloqiy qadriyatlarimiz, milliy g‘oya va madaniyatimiz, ma’naviy merosimiz bilan uyg‘un holda hamda zamonaviy shakllar,

interaktiv uslublar asosida tashkil etilishiga ham bog‘liqdir. Ushbu muammolarning yechimi o‘laroq quyidagi islohotlarni amalda keng joriy etish lozim:

Birinchidan, xalq ruhiyatini yuksatiradigan, uning ichki, botiniy qudratini namoyon etadigan tadbir va tashviqot ishlarini tashkil etish, shu ruhdagi adabiybadiiy asarlar, ilmiy-publitsistik tadqiqot ishlarini ko‘paytirish va ularni rag‘batlantirish, ularni keng omma ongu tafakkuriga singdirishning tizimli mexanizmini ishlab chiqish;

Ikkinchidan, mustaqillik davrida erishilgan milliy-ma’naviy yutuqlarimizning ahamiyati, jozibasini ko‘rsatish; istiqlol, xalq erki, farovonligi, milliy davlatchiligimiz eng sharafli, eng muqaddas qadriyat ekanini muntazam ravishda yoshlar ongiga singdirib borish zarur va shart;

Uchinchidan, muqaddas islom dinimizning ruhiy kamolot va barkamollikka chorlovchi ezgu g‘oyalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, din arboblarini ham ta’lim va tarbiyaga keng jalb etish kerak;

To‘rtinchidan, qadim allomalarimizning merosini bugungi kun yoshlariga yetkazish masalasi bilan jiddiy shug‘ullanish, jadidlar va ularning namunali va mashaqqatli hayot va ilmiy yo‘llarini targ‘ib qilish, ularning asarlarini o‘rganish va nashr etishni davom ettirish zarur;

Beshinchidan, axloq me’yorlarining milliy asoslarini ishlab chiqish. Bunda umuminsoniy axloqiy me’yorlarni inobatga olish, yoshlarda kitobxonlikka e’tiborni oshirish va mamlakatimizda bu sohada olib borilayotgan ishlarni qo‘llab-quvvatlash lozim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish, jamiyat fuqarolarining ma’naviyatini yuksaltirish uchun faqat nazariy bilim bermasdan, amaliyotga ham ko‘proq urg‘u berish lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi bolalar, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’limdagi o‘quvchi va talabalar uchun ta’lim jarayoni bilan birgalikda ma’naviy dunyoqarashni o‘stiruvchi, o‘zi uchun yangi bilimlar kashf qilishi mumkin bo‘lgan turli xil muzeylarga, teatrlarga, tarixiy maskanlarga borishni tashkil etish lozim. Ta’lim tashkilotlarining barcha bo‘g‘inida tahsil oluvchilarni muzeylarga, tarixiy joylarga tashrifini amalga oshirish ularning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi kengayishida bevosita asosiy choratadbirlardan biri deb aytishimiz mumkin. Shunday ekan, dam olish kunlarida farzandi bilan muzeylarga, teatrlarga borgan ota-ona ham o‘zi uchun kerakli nimadir olishi shubhasiz. Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muntazam tashkil etish turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlar va xurujlarning oldini olish, aholi ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarda ularga nisbatan bevosita ma’naviy immunitetni shakllantiradi va baxtli kelajak sari dadil odimlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 267.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. www.prezident.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.www.lex.uz.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 21 dekabr, №272 (8334).

5. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga doir konseptual g‘oyalari va tavsiyalari)Uslubiy qo‘llanma – Toshkent: Lesson press, 2022.–B. 122.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori.

7. Kenjayev Sh.X. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T,.2024 y.

8. Kenjayev Sh, Asatulloyev A. Filosofiya. Uchebnik T,. 2025 g.